

# **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

## **KORPORATIV MIJOZLARNI KREDITLASHDA ANDERRAYTING XIZMATI**

*Umarov Zafar Absamatovich  
TDIU kafedra mudiri, i.f.n., professor*

**Annotatsiya:** Tijorat banklarida korporativ mijozlarni kreditlash jarayonida anderrayting xizmatidan foydalanish, bank risklarini baholash va kamaytirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banki, kreditlash, anderrayter, anderayting xizmati, bank risklari.

Ma'lumki, xar bir bankda o'z kreditlash jarayonlari va unda anderrayting tizimi avvalo mamlakatda qabul qilingan ushbu sohaga oid tegishli qonun va qoidalar, ya'ni normativ huquqiy hujjatlarga asoslangan holda, shuningdek regulyator tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar hamda tegishli bankning o'z ustavi, strategiya, kredit Siyosati va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan ishlab chiqilib joriy etiladi. Shuningdek, ushbu ishlab chiqilgan tizim o'z navbatida har bir bankning kreditlash jarayonlari samaradorligini oshirish va bank kredit amaliyotlari bilan bog'liq tavakkalchiliklari ustidan nazoratni kuchaytirishga, ya'ni risk menejmentni to'g'ri tashkil etishga xizmat qilishi lozim bo'ladi.

Va o'z navbatida ushbu joriy qilingan anderrayting tizimi - kreditlash amaliyotlari ishtirokchilari hisoblangan bankning barcha tarmoqlari – filiallari, bo'linmalari, bank xizmatlari markazlari yoki ofislari uchun mo'ljallanadi.

Anderrayting tizimi qarz oluvchilarning har bir segmenti uchun, jumladan jismoniy shaxslarni kreditlashda va korporativ mijozlarni kreditlash uchun joriy etiladi. Quyida biz korporativ mijozlar segmenti uchun anderrayting tizimi qanday tartibda tashkil etilishini ko'rib chiqamiz.

*Korporativ mijozlarni kreditlashda anderrayting.*

Anderrayting tizimi joriy etilishi natijasida korporativ mijozlarni kreditlash jarayonida ham o'ziga xos o'zgarishlar ro'y beradi.

Birinchi bosqichda kredit mutaxassis (ko'pchilik banklarda mijozlarni jalb qiluvchi bank xodimi - sotuvchi menejer deb ham yuritiladi) mijoz ehtiyojlaridan kelib chiqib, unga to'g'ri keladigan bank kreditini taklif qiladi. Tanlangan kredit mahsulotidan kelib chiqib, quyidagilarga aniqlanadi: qarz oluvchi arizasini ko'rib chiqish muddatlari; kredit bo'yicha foiz stavkalari, muddatlari va boshqa qiymat bilan bog'liq shartlar; kredit ta'minoti uchun garovlar; kerakli hujjatlar ro'yhati; va boshqa talablar.

Qarz oluvchi mijozni jalb qilgan mutaxassis yoki uning bo'limi taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki tekshiruvdan o'tkazadi, rad etishga asos bo'lувчи yoki boshqa kamchiliklar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlaydi hamda kelgusida tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarning ishtirokchilari haqidagi

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

ma'lumotlarni o'rganadi. Dastlabki tahlil natijalariga ko'ra kredit mutaxassisini qarz oluvchiga kredit mahsulotini taqdim etishning maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligini baholaydi. Ushbu bosqichning eng muhim tomoni shundaki, qarz oluvchi to'g'risida maksimal ma'lumotlar to'plash hamda shakllantrishdir va bu o'z navbatida qarz oluvchining kredit to'loviga layoqatliligini to'g'ri baholash va kreditlash imkoniyatlari to'g'risida qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Potentsial qarz oluvchi bilan kelgusida hamkorlik qilish maqsadga muvofiq deb hisoblansa, bitimni ko'rib chiqish masalasi kredit bo'limiga yo'naltiriladi.

Kreditlash bo'limi esa taqdim etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va baholaydi, shuningdek zarurat tug'ilsa mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni yoki hujjatlarni talab qilishi mumkin. Qarz oluvchi arizasi va kreditlash shartlaridan kelib chiqib kredit tahlilini amalga oshiradi. Tahlilni amalga oshirish hajmi va muddatları kredit mahsulotları xarakteristikasidan kelib chiqib turlicha bo'lisi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir bank qarz oluvchini va uning ishtirokchilarini (garov egalari, kafillik beruvchilar va boshqa) tahlil qilish jarayonini o'z kredit siyosati va tashkil etilgan anderrayting tizimi talablaridan kelib chiqib belgilaydi. O'zining risklar boshqarish tiziimi va reyting baholash tizimlarini joriy etgan holda kutilayotgan risklar, bozor tahlili, qarz oluvchi bilan bog'liq boshqa omillar tahlilini amalga oshirishi mumkin.

Qarz oluvchining reyting usulda baholanishi avtomatik tarzda -reyting modellari yordamida dastlabki bank sotish va kredit mutaxassisini tomonidan to'plangan ma'lumotlarni, qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va boshqaruv hisobotlari, shuningdek ochiq ma'lumotlar bazalaridan olingan materiallarni tegishli dasturga kiritish orqali tashkil qilinishi mumkin.

Reyting hisoblash natijalariga ko'ra kredit bo'limi bitim tuzish imkoniyatlaridan kelib chiqib, aniqlangan reyting baholarini va xatarlarni mustaqil baholash va tasdiqlash uchun anderrayting bo'limiga taqdim qiladi.

Qarz oluvchi tomonidan kredit ta'minoti sifatida taqdim qilingan garov mulklari bankning tegishli garovlarni baholash bo'limi tomonidan yoki ushbu bo'lim mavjud bo'limgan hollarda mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi mumkin.

Qarz oluvchi va bitim boshqa ishtirokchilarining reputatsion risklarini baholash, uning faoliyati to'g'risida va biznesi bo'yicha nufuzini yoki salbiy ma'lumotlar mavjud yoki mavjud emasligini o'rganish maqsadida xavfsizlik xizmati xodimlarini jalb etishi mumkin. Bitimning huquqiy tomonlariga baho berish esa bankning yuridik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ariza bo'yicha ko'rib chiqilayotgan kredit mahsuloti xarakteristikasidan kelib chiqib, bankning boshqa ichki va tashqi kuzatuvchi yoki nazorat bo'limlari ham qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun jalb qilinishi mumkin.

Qarz oluvchi arizasi bo'yicha amalga oshirilgan kredit tahlili va ekspertiza natijalariga ko'ra, kredit bo'limi tomonidan tegishli xavf xatarlar hisobga olingan holda kutilayotgan bitim shartlari va imkoniyatlari umumlashtiriladi.

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

Shundan so'ng, korporativ anderrayting bo'limiga rasman so'rov yuboriladi. Bitim yuzasidan risklarni mustaqil ravishda ekspertizadan o'tkazish uchun anderrayter tomonidan quyidagilar diqqat bilan tekshiriladi: taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va haqiqatga mosligi; kredit bitimi bo'yicha tegishli parametrlarning qonunchilikka va bankning ichki me'yoriy hujjatlariga mosligi; reyting modeli bo'yicha to'ldirilgan reyting baholarini to'g'riliqi va asoslanganligi;

Agar anderrayting bo'limi anderrayteri tomonidan yuqoridagilar yuzasidan ma'lumotlar qayta ishlash zarurati tug'ilsa, uni kredit bo'limiga qayta ishlanishi lozim bo'lgan kamchiliklar ko'rsatilgan va asoslantirilgan holda qayta ishlashga jo'natiladi. Kredit risklarni mustaqil ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra, anderrayter reyting baholarini tasdiqlaydi va bitim bo'yicha shartlar va risklarni minimizatsiya qilish bo'yicha yakuniy xulosa tayyorlaydi, Anderrayter tomonidan yakuniy xulosa tayyorlangach, kredit siyosatida belgilangan boshqa tartib bo'lsa yoki kredit komiteti tomonidan bitim bo'yicha kredit ajratish yoki ajratishni rad etish to'g'risida yakuniy qaror qabul qilinadi. Yakuniy qaror qabul qilish uchun, bosh asos sifatida anderrayter tomonidan tayyorlangan reyting natijalari bo'yicha xulosasi hisoblanadi. Kelgusida, bank tomonidan kreditga xizmat ko'rsatish va monitoring jarayonida anderrayter tomonidan o'rganilgan va tahlil qilingan reyting natijalari risklar baholash bo'yicha hisobotlarida foydalaniladi.

Korporativ yo'nalishdan kredit arizalarini ko'rib chiqishda qo'llaniladi reyting baholashning muhim jihatlari. Qarz oluvchilarni reyting hisoblash metodikasining o'ziga yara tartibi va bosqichlari, reyting modellariga asoslangan strukturasi bo'ladi. Xavf omillarini belgilash va kreditni qaytmaslik ehtimolini aniqlash, qarz oluvchi reyting natijalarini adolatli baholash maqsadida iqtisodiy -matematik tahlil va modellashtirish usullari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Har bir bank o'z tajribasidan kelib chiqqan holda, kredit siyosatida belgilangan tahlil usullaridan, reyting modellaridan foydalangan holda ekspertiza – anderrayting tizimni tashkil qilishi mumkin.

Reyting baholash qarz oluvchining son va sifat ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi. Son ko'rsatkichlariga baho berishda qarz oluvchining moliyaviy ahvoli to'g'risidagi hisobotlari asos bo'lib xizmat qiladi. Reyting modelini ishlab chiqishda qarz oluvchining sifat ko'rsatkichlari esa, taqdim qilingan hujjatlari to'plami va undagi ma'lumotlarning haqiqatga mosligi va ishonchliligi, bankning tegishli bo'limlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, ochiq ma'lumotlar bazalaridan olib o'rganilgan elektron ma'lumotlar hisoblanadi.

Qarz oluvchining sifat faktorlariga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: qarz oluvchining faoliyati va iqtisodiy sektori; bozor holati va undagi o'rni; qarz oluvchi va boshqa ishtirokchilar reputatsiyasi; debitor va kreditorlardan mustaqillik darajasi; kuchli va kuchsiz tomonlari; kredit tarixi; risklar darajasi, valyuta bilan bog'liq risklar; boshqaruv tizimi; umuman olganda, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, iqtisodiy sohadagi siyosat va boshqalar.

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

Shunday qilib, tijorat banklarida kreditlash jarayonini andarrayting tizimi orqali tashkil etish tartibi yuqoridagilardan farqli ravishda har bir bank strategiyasi va kredit siyosatidan kelib chiqib turlicha tashkil etilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Umarov Z.A. Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobi va auditining nazariy-uslubiy masalalari / Monografiya, IQTISOD-MOLIYA, 2021 yil, 127 b.
2. Toymuxamedov I., Umarov Z., Xusainov G. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma. – 2018.
3. Umarov Z.A. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Innovatsion rivojlantirish nashriyot-matbaa uyi” 2021, 612 b.
4. Umarov Z.A. Yangi bank xizmatlari, ularni rivojlantirish Bozor, pul va kredit jurlali №1 2019 y.
5. Юлдашев, Ж. А. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МИЖОЗЛАР БИЛАН МУНОСАБАТЛАР ХОЛАТИНИ БАХОЛАШ УСУЛИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШ.
6. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 4 (2024), 754–759
7. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>
8. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. World Scientific Research Journal, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>
9. Косимович, Я. У. (2024). Таҳқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. World scientific research journal, 26(2), 199–205.
10. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
11. Choriev I.X. Auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: «Iqtisod-moliya»nashriyoti, 2021, - 21-26 b.
12. Кличев, Б. (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариши ҳажми таҳлилини тақомиллаштириши масалалари. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 170–173. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173>
13. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Konferensiya to'plami. Termiz, O'zbekiston. 15-iyun 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

14. Yakupbaevich, I. J. ., Abrarovich, Y. J. ., Akhtamovich, H. S. ., & Bekmurodova. (2023). COMMERCIAL BANKING, CREDIT OPERATIONS, PROVISION OF COLLATERAL, ASSESSMENT MECHANISMS. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI / JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(4), 6–13. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/251>
15. Қличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишилаб чиқарии ҳажми таҳлилини тақомиллаштириши масалалари. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>
16. Abdullayev, A., & Djamatov, H. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE INTERNAL CONTROL SERVICE FOR THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS OF ENTERPRISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 8(4), 297-307.
17. Худоёров О.О. (2023). Банк тизимини ракамлаштириш шароитида рақамли банк технологияларини жорий қилиш . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 99–107. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2788>
18. Xudoyorov, O. O. (2023). Bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlarini tutgan o ‘rni.
19. Odilovich, K. O. (2024). IMPACT OF REMOTE BANKING SERVICES ON BANK INCOME. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 82-86.
20. Majidov, J. K. (2019). Ways of improving management of credit portfolio at commercial banks. *International Journal of Research in Social Sciences*, 9(3), 725-736.
21. Мажидов Ж. (2024). Тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш бўйича хориж тажрибаси ва унинг ўзига хос хусусиятлари. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1463-1467. <https://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/3878>
22. Kholdorov Sardor Umarovich. (2024). LIQUIDITY RISK MANAGEMENT IN THE BANKING SECTOR: CHALLENGES, STRATEGIES AND IMPLICATIONS. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 122–131. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrij/article/view/3255>